

PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF INDICATORS TO IMPROVE BANKING PERFORMANCE EFFICIENCY IN THE CONTEXT OF TRANSFORMATION PROCESSES

Babakhanova Dildora Rustamovna

**Independent researcher of Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi**

Abstract: This thesis examines the issues of improving the efficiency of commercial banks' activities in the context of ongoing transformations in the banking system. The study analyzes the theoretical and practical aspects of applying efficiency indicators in evaluating bank performance. Particular attention is given to the prospects of using these indicators to enhance bank management and improve financial results. The paper also proposes recommendations for improving the system for assessing banking efficiency under modern economic conditions.

Keywords: banking transformation, banking efficiency, efficiency indicators, commercial banks, financial stability, bank management, economic efficiency.

TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH INDIKATORLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Babaxanova Dildora Rustamovna

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

Annotatsiya: Ushbu tezisda bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari sharoitida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda banklar faoliyatini baholashda samaradorlik indikatorlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqiladi hamda ularni qo'llash orqali bank boshqaruvi va moliyaviy natijalarini yaxshilash istiqbollari yoritiladi. Shuningdek,

zamonaviy iqtisodiy sharoitda banklar faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: bank transformatsiyasi, bank faoliyati samaradorligi, samaradorlik indikatorlari, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, bank boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik.

**ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНДИКАТОРОВ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ
ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ**

Бабаханова Дилдора Рустамовна

**Независимый исследователь Ташкентского университета
информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми**

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы повышения эффективности деятельности коммерческих банков в условиях трансформации банковской системы. Исследуются теоретические и практические аспекты применения индикаторов эффективности при оценке деятельности банков. Особое внимание уделяется перспективам использования данных индикаторов для совершенствования управления банками и повышения их финансовых результатов. Также разработаны предложения по совершенствованию системы оценки эффективности банковской деятельности в современных экономических условиях.

Ключевые слова: трансформация банковской системы, эффективность банковской деятельности, индикаторы эффективности, коммерческие банки, финансовая устойчивость, банковское управление, экономическая эффективность.

Kirish. Hozirgi kunda jahon moliya tizimida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi hamda raqamli

texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimi faoliyatini tubdan modernizatsiya qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish hamda uni baholashning zamonaviy indikatorlarini qo'llash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi asosiy institut sifatida investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli banklar faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan indikatorlarni takomillashtirish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda banklar faoliyati samaradorligini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR), kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) hamda kredit portfeli sifati kabi ko'rsatkichlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu indikatorlar bank faoliyatining moliyaviy natijalarini, resurslardan foydalanish samaradorligini hamda risklarni boshqarish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, bank boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bank faoliyati samaradorligini baholash indikatorlarini yanada takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini transformatsiya qilish, tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish hamda ularning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda banklar faoliyati samaradorligini baholash indikatorlarini qo'llash istiqbollari ilmiy jihatdan o'rganish, bank tizimi transformatsiyasi sharoitida samaradorlikni oshirishning zamonaviy mexanizmlarini

aniqlash hamda ushbu indikatorlarning amaliy ahamiyatini asoslash muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy bank tizimida samaradorlikni baholash bank resurslaridan foydalanish darajasi, moliyaviy natijalar, kredit portfeli sifati hamda risklarni boshqarish tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli banklar faoliyati samaradorligini aniqlashda turli moliyaviy va operatsion indikatorlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda bank faoliyati samaradorligini oshirish masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilib, unda bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, operatsion xarajatlar darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi hamda raqamli bank texnologiyalarini joriy etish kabi omillarning muhimligi ta'kidlanadi. Iqtisodchi olimlar Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan M.Mamonov, A. Vernikovlar «stoxastik chegara usuli yordamida tijorat banklarining samaradorligini o'rganib chiqishgan. Mualliflar yirik davlat banklarining xususiy va xorijiy banklarga nisbatan samaradorligini, shuningdek, kreditlash bozorida Lerner indeksi bilan o'lchanadigan banklarning samaradorligi va bozor kuchi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni aniqlaganlar».[1]

C.Almanza, J Rodriguezlar, «samaradorlikdagi tafovutlarni asoslash uchun yirik banklar katta kredit va bozor xatarlarini qabul qilish bilan tavsiflanadi, kichik banklar esa ko'proq mablag' manbai sifatida o'z mablag'lariga ko'proq e'tibor berishadi» deya ta'kidlashadi.[2] V.Belousova, A.Karminsky, N.Myachin, I.Kozyrlar «xorijiy va davlat banklari katta samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlab o'tgan. Uning tadqiqotlari, shuningdek, ixtisoslashuv (aktivlar va jalb qilingan mablag'lar tarkibi) va tavakkalchilikka moyillik (kredit xavfi ko'rsatkichlari, likvidlik va ochiq valyuta pozitsiyasi) kabi omillarni hisobga olgan».[3]

Yuqorida keltirilga fikrlarga Z.Zhou va boshqalarning tadqiqotlarida qarama-qarshi xulosalar keltirilgan, «unga ko'ra, tartibga solishni liberallashtirishni o'z ichiga olgan moliyaviy islohotlar tijorat banklari samaradorligini oshirishga yordam bermaydi» deb ta'kidlab o'tganlar. Boshqa tomondan, «ba'zi tadqiqotlar raqobatning tijorat banklari samaradorligiga ijobiy ta'sirini birinchi navbatda operatsion xarajatlarni optimallashtirish orqali ko'rsatadi», [4] deya fikr bildirishganlar. E.Osuagwu, W.Isola, I.Nwaogwugwularning tadqiqotlarida, «bank faoliyatining o'ziga xos xususiyati uning yuqori tartibga solinishi bo'lib qolmoqda, bu to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy bozorlarning barqarorligini ta'minlash zarurati bilan izohlanadi. Tartibga solishning milliy xususiyatlari tijorat banklari samaradorligidagi farqlarni belgilashligi keltirib o'tilgan». [5]

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari banklar faoliyati samaradorligini oshirish murakkab va ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda bank samaradorligi bank hajmi, kredit portfeli sifati, risklarni boshqarish darajasi hamda moliya bozoridagi raqobat muhiti bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Shu bilan birga, bank tizimini davlat tomonidan tartibga solish darajasi hamda moliyaviy liberallashtirish jarayonlari banklar faoliyati samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlangan.

Muallifning fikricha, bank tizimini transformatsiya qilish sharoitida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishni baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda zamonaviy indikatorlardan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR) kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bank xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi, operatsion jarayonlarning samaradorligi hamda bank boshqaruvining institutsional ko'rsatkichlari ham kompleks tarzda tahlil qilinishi zarur.

Shuningdek, bank tizimi transformatsiyasi jarayonida samaradorlik indikatorlarini amaliyotda keng qo'llash bank faoliyatining natijadorligini oshirish, risklarni samarali boshqarish hamda bank xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, banklar faoliyati samaradorligini baholash indikatorlarini takomillashtirish hamda ularni zamonaviy bank boshqaruvi tizimiga integratsiya qilish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

1-jadval

**Transformatsiya jarayonlarida banklar faoliyati samaradorligini oshirish
indikatorlarini qo'llash istiqbollari¹**

Indikator nomi	Mazmuni	Transformatsiya jarayonidagi ahamiyati	Kutilayotgan natija
Aktivlar rentabelligi (ROA)	Bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi	Bank resurslaridan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi	Bank aktivlarining daromadliligini oshirish
Kapital rentabelligi (ROE)	Bank kapitalidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi	Investorlar uchun bank faoliyatining jozibadorligini baholaydi	Kapital samaradorligini oshirish
Sof foiz marjasi (NIM)	Kredit operatsiyalaridan olinayotgan sof	Kreditlash jarayonlarining samaradorligini	Kredit portfeli daromadliligini oshirish

¹ Muallif ishlanmasi

	daromad darajasini ko'rsatadi	baholashga yordam beradi	
Xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR)	Bank operatsion xarajatlarning daromadlarga nisbati	Operatsion jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi	Operatsion samaradorlikni oshirish
Kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR)	Bank kapitalining riskka tortilgan aktivlarga nisbati	Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi	Moliyaviy xavflarni kamaytirish
Muammoli kreditlar ulushi (NPL)	Kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushini ko'rsatadi	Kredit risklarini baholash va boshqarish imkonini beradi	Kredit portfeli sifatini yaxshilash
Raqamli bank xizmatlari ulushi	Bank operatsiyalarida raqamli xizmatlar ulushi	Bank tizimini raqamlashtirish darajasini ko'rsatadi	Bank xizmatlari tezligi va qulayligini oshirish
Operatsion samaradorlik koeffitsiyenti	Bank operatsiyalarining umumiy samaradorligini ifodalaydi	Bank boshqaruvi samaradorligini baholash imkonini beradi	Bank faoliyati natijadorligini oshirish

Mazkur 1-jadvalda bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy va operatsion indikatorlar keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatining daromadliligi, moliyaviy barqarorligi, operatsion samaradorligi hamda risklarni boshqarish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) kabi ko'rsatkichlar bank resurslaridan foydalanish samaradorligini hamda bank kapitalining daromadliligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu indikatorlar banklarning moliyaviy natijalarini baholash hamda investorlar uchun bank faoliyatining jozibadorligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, sof foiz marjasi (NIM) bank kredit operatsiyalarining daromadliligini tavsiflab, bank daromadlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish zamonaviy moliya tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank faoliyati samaradorligini baholashda ROA, ROE, NIM, CIR, CAR hamda NPL kabi moliyaviy indikatorlardan foydalanish banklarning daromadlilik darajasi, operatsion samaradorligi va moliyaviy barqarorligini kompleks baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlari ulushi va operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari bank tizimining transformatsiya jarayonidagi innovatsion rivojlanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank tizimida samaradorlik indikatorlarini keng qo'llash bank boshqaruvini takomillashtirish, risklarni samarali boshqarish hamda bank xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, bank resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi hamda bank sektorining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik roli kuchayadi.

Shu bois transformatsiya jarayonlarida banklar faoliyati samaradorligini baholash indikatorlarini tizimli ravishda qo'llash, ularni xalqaro bank amaliyoti talablari asosida takomillashtirish hamda bank boshqaruvi jarayonlariga integratsiya qilish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamonov, M., Vernikov, A. (2017). Bank ownership and cost efficiency: New empirical evidence from Russia. *Economic Systems*, Vol. 41, No. 2, 305–319. DOI: 10.1016/j.ecosys.2016.08.001.
2. Almanza, C., Rodríguez, J. (2018). Profit Efficiency of Banks in Colombia with Undesirable Output: A Directional Distance Function Approach. *Economics: The Open-Access, Open-Assessment E-Journal*, No. 2018–30, 1–18. DOI: 10.5018/economics-ejournal.ja.2018–30
3. Belousova V., Karminsky A., Myachin N., Kozyr I. (2019). Bank Ownership and Efficiency of Russian Banks. *Emerging Markets Finance and Trade*, 1–18. DOI: 10.1080/1540496x.2019.1668764.
4. Zhou, Z., Placca, E., Jin, Q., Liu, W., Wu, S. (2017). Banks efficiency and productivity in Togo after the financial liberalization: a combined Malmquist index approach. *INFOR: Information Systems and Operational Research*, Vol. 56, No. 3, 317–331. DOI: 10.1080/03155986.2017.1337416.
5. Osuagwu, E., Isola, W., Nwaogwugwu, I. (2018). Measuring Technical Efficiency and Productivity Change in the Nigerian Banking Sector: A Comparison of Non-parametric and Parametric Techniques. *African Development Review*, Vol. 30, No. 4, 490–501. DOI: 10.1111/1467– 8268.12357.